



QADIMGI TURKIY TILDA SO'Z BIRIKMALARI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIKLARI (KULTEGIN BITIKTOSHI MISOLIDA)

Boboqulova Mohina Norsafar qizi

mohinaboboqulova689@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Sentabr 2024 yil

Ma'qullandi: 23- Sentabr 2024 yil

Nashr qilindi: 26- Sentabr 2024 yil

KEY WORDS

*so'z birikmasi, teng munosabat,
tobe aloqa, ko'makchi, grammatik
shakl.*

ABSTRACT

Ushbu maqola qadimgi turkiy tilda so'zlar orasidagi munosabatlar, so'z birikmasi va ularni bog'lovchi vositalarning lingvistik xususiyatlarini Kultegin bitiktoshi misolida yoritib beradi.

Tarixiy jarayonlar davomida inson o'z davridagi yangiliklarni kashf etadi, shu bilan birga kishilik jamiyatining siyosiy-iqtisodiy va madaniy jabhalarda yuksalishlariga sabab bo'luvchi omillarni yuzaga keltiradi. Bu omillar va tarixiy tajriba sifatida qaraladigan xulosalar asosida har bir tamaddunining asosini o'rganish mumkin. Dastlabki davlatchilik asoslarining shakllanishi va madaniy sohalarining rivojlanishida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish tarixiy yodgorliklar asosida kechganidek, ular vositasida tilning evolyutsion bosqichlari va ularning xususiyatlarini ham o'rganish imkoniga ega bo'linadi. Shu jumladan, Kultegin bitiktoshi matni qadimgi turkiy tildagi so'zlar va ular orasidagi munosabatlarni hozirgi o'zbek adabiy tili qonuniyatlari bilan qiyoslagan holda o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi turkiy tilda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi so'zlar orasidagi munosabat tenglik va tobelik asosida yuz bergan. Birikma hosil qilayotgan so'zlarning teng bog'lovchilar vositasida bog'lanishi va ularning bir-biriga nisbatan teng huquqli mavqeda ekanligi tenglik munosabatini yuzaga keltiradi. Aksincha, so'zlarning tobe va hokimlik munosabatiga kirishishi, tobe bo'lak hokim so'zning ma'nosini izohlab kelishi tobelik munosabatiga sabab bo'ladi [1, 323]. Qadimgi turkiy tilda ham tobelanish asosida yuz beradigan aloqaning uch xil turi mavjud bo'lgan: bitishuv, boshqaruv va moslashuv [4, 101].

Hech qanday grammatik vositalarsiz hosil qilinadigan tobe aloqa turi bitishuv deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqli ravishda bu aloqa turi qadimgi yodgorliklar matnida juda keng qo'llanilgan: yağiz yär (qo'ng'ir yer (Kt,1)), yablaq qağan (badfel xoqon (Kt,5)), antağ külüg qağan (shunday mashur xoqon (Kt, 4)). Chunki so'zlarni o'zaro bog'lashda ishlatiladigan vositalar kam bo'lgan [1, 324].

Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar orqali grammatik shaklga kirgan tobe bo'lak boshqaruv yo'li bilan hokim bo'lakka bog'lanadi: baliqa barmadi (shaharga bormadi (Kt, 48)), Kül tigin birlä sözläşdimiz (Kultegin bilan gaplashdik (Kt, 26) va boshqalar. Bu aloqaning

taraqqiyoti grammatik vositalarning iste'moldan chiqishi va yangilarining paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda yuz berdi [1, 325].

Bog'langan qismlarning o'zaro uyg'unlik orqali tobe aloqaga kirishi, ya'ni hokim so'z o'zgarishi bilan tobe so'zning ham hosil bo'lgan shaklga moslashishi moslashuv aloqasini paydo qiladi [5, 20]. Bu munosabat qaratuvchi va qaralmish o'rtasida mavjud bo'ladi: Tabg'ach xoqoniga (Kt, 8)), t'ur'uk ta'n'risi (turkning osmoni (Kt, 10)), qa'gan su'si (xoqonning lashkari (Kt, 12)). Shu bilan birga ega va kesimning shaxs-sonda moslashishi ham bu aloqaga misol bo'ladi: Ku'l tigin ka'rga'k bolti, o'zu'm sa'qintim (Kultegin vafot etdi, o'zim alam chekdim (Kt, 49/10)). Ammo qadimgi turkiy yodnomalarda bu moslashuv turi hozirgi kundagi ko'rinishlaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

NATIJALAR

Quyidagi jadvalda Kultegin bitiktoshi matnidan olingan bir qancha namularni ko'rish mumkin:

T/r	So'z birikmasi	Bog'lovchi vosita	So'z birikmasi qismlari orasidagi tobe aloqa turi	Manba
1	kisi o'g'linta uza qa'gan (Odam bolasi ustidan xoqon)	-ta, uza (o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi, ko'makchi)	boshqaruv (Otli)	Kt,1
2	t'orusin tuta birmis (Tartibini ta'minlab turgan)	-n (tushum kelishigi qo'shimchasi)	boshqaruv (fe'lli)	Kt,1
3	ba'shlig'i'g' yu'kunturmis (Boshi borni ta'zim qildirgan)	-i'g' (tushum kelishigi qo'shimchasi)	boshqaruv (fe'lli)	Kt,2
4	bun'ca bodun (Shuncha xalq)	ohang	bitishuv (otli)	Kt,4
5	silik qiz o'glin (Suluv/esli qiz bolasini)	ohang	bitishuv (otli)	T, 13
6	o'ku'sh qiltim (Ko'p qildim)	ohang	bitishuv (fe'lli)	Kt,29
7	yag'an silig bag'in at (Yagan Silig bekning oti)	-i'n (qaratqich kelishigi qo'shimchasi)	moslashuv	Kt,33
8	t'urgas' qa'gan buyruqi (Turgash xoqonning vaziri)	ohang (belgisiz qaratqich kelishigi qo'shimchasi)	moslashuv	Kt,38
9	bizi'n su (Bizning lashkar (-imiz))	-i'n (qaratqich kelishigi qo'shimchasi)	moslashuv	Kt,39
10	bodun u'chu'n udimadim (Xalq uchun uxlamadim)	u'chu'n (ko'makchi)	boshqaruv (fe'lli)	Kt,27

Ushbu jadvalda qadimgi turkiy tilda bitishuv yo'li bilan hosil qilingan so'z birikmasining hokim bo'lagi ot bilan ifodalanganda unga bog'langan tobe bo'laklar tarkib jihatdan sodda, ya'ni bir yoki ikki aniqlovchidan iborat bo'lishini ko'rish mumkin. Moslashuv yo'li bilan hosil qilingan so'z birikmalarida esa affikslarning har ikki qismda qo'llanilishi yoki qo'llanilmaslik holatlarining har uch xil ko'rinishi aks etgan [1, 334].

MUHOKAMA

Yodnoma matnidan olingan namunalarda har uch tobe aloqa turi asosida yasalgan so'z birikmalari deyarli hozirgi o'zbek adabiy tili uchun me'yoriy ko'rinishga kirgan shakllarga yaqin. Ammo voqelikning vertikal yo'nalishda yuz berganligini ifodalovchi üzä ko'makchisi kelishik qo'shimchalarini olgan so'zlar bilan qo'llanilgan holatlar bilan bog'liq qadimgi turkiy tilning grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi: kisi o'g'linta üzä qağan. Bu holatni N. Abdurahmonov shunday izohlaydi: "Üzä ko'makchisi kontekstda kelishik formasini olgan so'zdan keyin kela oladi, u vaqtda kelishik formasida kelgan so'zning ma'nosini konkretlashtiradi".

XULOSA

Qadimgi turkiy til yodgorliklarida aks etgan so'z birikmalari va ularni bog'lovchi vositalarning xususiyatlari hozirgi kunda iste'molda bo'lgan shakllariga qaraganda ayrim nomuvofiqliklarga ega. Ammo bu farqlanishlar hozirgi o'zbek adabiy tilining ayrim sheva vakillari tilida hali ham saqlanib qolgan. O'zbek tilining tarixi va lingvistik tabiatini o'rganishda har ikkala davrning adabiy me'yorlarini o'zida namoyon qilgan yodgorliklar matreallarini qiyoslab o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, 323-334. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti;
2. Rahmonov N., Sodiqov Q. 2009. O'zbek tili tarixi, 170-174. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. 1982. Қадимги туркий тил, 42-46. - Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти;
4. Абдурахмонов Н. 1989. Қадимги туркий тил, 98-102. - Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти;
5. Фуломов А., Асқарова М. 1987. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 22. - Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти.